



## VATANPARVARLIK TUSHUNCHASINING MOHIYAT-MAZMUNI

**Seytkasimov J. N.**

*Nukus davlat pedagogika instituti, doktorant*

**Tayanch soʻzlar:** Vatan, vatanparvar, vatanparvarlik, davlat, jamiyat, shaxs.

**Ключевые слова:** Родина, патриот, патриотизм, государство, общество, личность.

**Key words:** Homeland, patriot, patriotism, country, society, personality.

### **РЕЗЮМЕ:**

Mazkur maqolada “Vatanparvar” va “Vatanparvarlik” tushunchalarining ma’no-mohiyati va mazmuni tahlil qilindi.

### **РЕЗЮМЕ:**

В данной статье проанализированы смысл и содержание понятий “патриот” и “патриотизм”.

### **SUMMARY:**

This article analyzes the meaning and content of the concepts “patriot” and “patriotism”.

Vatanparvarlik kishining Vatanga sitqidildan xizmat qilishi va sadoqatida, madaniyati va anʼanalari, tili bilan maqtanishida, ularni sevishida, Vatanini qudratini, oʻzining maʼnaviy aloqadorligini, kerakligini his qilishida, yurtini himoya qilishga tayyorgarligida ifodalanadigan fazilat sifatida aniqlanadi.

Vatanparvarlikning mazmun-mohiyatini tushunish uchun dastlab ushbu vatanparvarlik gʻoyalarini tarixiy-pedagogik jihatdan oʻrganish zarur.

Markaziy Osiyo xalqlari uchun umumiy yodgorliklar boʻlgan Urxun-Enasoy toshbitiklari, Shiroq, Tumaris haqidagi rivoyatlar, «Alpomish» dostoni kabi xalq ogʻzaki ijodi namunalari xalqni birlikka chorlaydi, yoshlarni mardlikka tarbiyalaydi. Buyuk allomalarimiz, mutafakkirlarimiz Maxmud Qoshgʻoriy, Yusuf Xos-Xojib, Ahmad Yugnakiy, Imom Buxariy, Imoi at-Termiziy, Najmiddin Kubro, Alisher Navoiy, Zahiriddin Bobur, Berdoq. Ajiniyozlar oʻz asarlarida xalq manfaati yoʻlida xizmat qilish, borliqni, hayotni, insonni ulugʻlash, mardlik va josurlik gʻoyalarini kuylasa, buyuk jadidchi bobolarimiz asarlarida vatanparvarlik tarbiyasiga alohida eʼtibor qaratilgan.



Ma'rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniy Vatanni sevish va uni ardoqlashni tabiat va jamiyatning muhim qonuniyati sifatida ta'riflaydi. «Vatan. Har bir kishining tug'ulub o'skan shahar va mamlakatini shul kishining vatani deyilur. Har kim tug'ulgan, o'sgan yerini jonidan ortiq suyar. Hatto bu vatan hissi-tuyg'usi hayvonlarda ham bor. Inson qalbida millat, Vatan, ajdodlar ruhi oldidagi burch va tuyg'ular qanchalik chuqur joy olgan bo'lsa, mahdudlik o'rniga milliy g'oyalar vujudga keladi. Mana shunday fazilatlariga ega insonlarda kurashchanlik, tashabbuskorlik, o'z-o'zini anglash, millat, Vatan sha'ni va manfaatini himoya qilishdek muqaddas tuyg'ular shakllanadi. Agar bir hayvon o'z vatanidan – uyuridan ayirilsa, o'z yeridagi kabi rohat rohat yashamas, maishati talx bo'lub, hap vaqt dilining bir go'shasida o'z vatanining muhabbati turar».

Vatanparvarlik, millatparvarlik, vatanparvarlik tarbiyasi masalalarini qator o'zbekistonlik olimlar (J.Bazarbayev, R.Xatamova, F.Otaxonov, F.Mavrulov va h.k.) turli jihatdan tadqiq qilgan.

Sho'rolar davrida vatanparvarlik tarbiya qat'iy mafkuraviy, siyosiy yo'nalishlarda olib borildi. Ushbu davrda taniqli pedagoglar (A.V.Lunacharskiy, N.N.Krupskaya, A.S.Makarenko, S.T.Shatskiy va boshqalar) o'z asarlarida harbiy-vatanparvarlik tarbiya masalalariga, yosh avlodni o'z Vatani himoya qilishga tayyorlash ishiga alohida e'tibor bergan. Olimlarning tadqiqotlaridan shu narsa ayon bo'lmoqdaki, ta'lim va tarbiya ishi xalq bilan birga o'sib, taraqqiy topib kelgani bois uning ilg'or an'analari kelgusi avlodga meros bo'lib kelmoqda.

Shunday ekan, vatanparvarlik tushunchasi mazmun-mohiyati nimalardan iborat?

«Vatanparvarlik - bu kishilarning ona yurtiga, o'z oshyoniga muhabbati va sadoqatini ifodalaydigan tushuncha. Vatanparvarlik barcha kishilar, xalq, millatlar uchun umumiy bo'lgan, asrlar davomida sayqallanib kelgan umuminsoniy tuyg'u, ma'naviy qadriyatlardan biri».

«Vatanparvarlik - Vatanning ozodligi va obodligi, uning sarhadlari daxlsizligi, mustaqilligining himoyasi yo'lida fidoyilik ko'rsatib yashash, ona xalqining or-nomusi, shon-sharafi, baxtu saodati uchun kuch-g'ayrati, bilim va tajribasi, butun hayotini baxsh etishdek dunyodagi eng muqaddas va olijanob faoliyatni anglatadigan tushuncha. Vatanparvarlik nihoyatda serqirra tushuncha bo'lib, tarixiy, ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy taraqqiyot jarayonida doimo takomillashib, yangicha ma'no-mazmun bilan boyib, rivojlanib boradi. Vatan manfaati, qadr-qimmat, taqdiri, istiqboli, ona yurtga muhabbat tuyg'usi qancha chuqur anglansa, vatanparvarlik tuyg'usi shuncha yuksak bo'ladi. Tarixiy, ijtimoiy-

siyosiy, ma'naviy taraqqiyotning turli bosqichlarida vatanparvarlikning yangi-yangi qirralari namoyon bo'lib boradi. Haqiqiy vatanparvarlik Vatanga, ona zaminga, o'z xalqiga muhabbat bilan yashash, uning istiqboli, manfaati yo'lida tinimsiz mehnat qilish hamda kurashish zarurati tug'ilganda jonini fido qilishni nazarda tutadi. Har jabhada Vatanimiz erishayotgan muvaffaqiyatlardan quvonish, og'ir kunlarida uning uchun qayg'urish, o'z yurti bilan g'ururlanish, uning har bir qarich yeri, har bir g'ishti va giyohiga, qadimiy va zamonaviy obidalari, ilm-fan va san'atdagi yutuqlarini, moddiy va ma'naviy boyliklarini ko'z qorachig'idek asrab-avaylash – bularning barchasi vatanparvarlikdir.

Hozirgi paytda yoshlarimizda vatanparvarlik tuyg'usini kamol toptirish, ularni Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash muhim ahamiyatga ega. Inson o'z yurtini qanday bo'lsa shundayligicha sevishi, uning rivoji uchun bor imkoniyatlarini ishga solishi lozim. Vatanparvarlik kishilarda asosan uch bosqichda namoyon bo'ladi: 1) bilish – Vatan tushunchasiga xos qadriyatlarni egallash; 2) e'tiqod – mazkur qadriyatlar to'g'risida olgan bilimlarini e'tiqodga aylantirish; 3) harakat – bu e'tiqodni amaliy ishlar orqali namoyon etish» [1;104-105].

O'zbek tilining izohli lug'atida yozilishicha, «Vatanparvar» - o'z vatanini, ona yurtini, xalqini cheksiz sevuvchi, vatan manfaatlarini uchun jonbozlik ko'rsatuvchi shaxsdir. Vatanparvarlik esa, vatanparvarlarga xos ish, xatti-harakat, hislat hisoblanadi [2;444-445]. Ona Vatanimizni ko'z qorachig'idek asrash, uning shuhratini dunyoga tarannum etish bilan bogliq eng muhim tushunchalar, hayotiy va professional ko'nikmalarni ilm-ma'rifat asosida yoshlarning qalbi va ongiga ilk bolalik davridan boshlab singdirib borish orqali O'zbekistonning haqiqiy vatanparvar fuqarolarni tarbiyalash mumkin.

Vatanparvarlik – vatan oldidagi mas'uliyat va burchini anglash tushunchasi. Vatanparvarlik nihoyatda serqirra bo'lib, tarixiy, ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy taraqqiyot jarayonida doimo takomillashib, rivojlanib boradi. Vatan manfaati, qadr-qimmatini, taqdirini, istiqbolini qancha ko'p anglashilsa, kishilarda vatanparvarlik tuyg'usi shuncha baland bo'ladi. Bu jarayon cheksizdir. Tarixiy, ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy taraqqiyotning turli bosqichlari vatanparvarlikning yangi-yangi qirralarini kashf etib boradi. Har bir shaxsdagi vatanparvarlik tuyg'usi jamiyat taraqqiyoti bilan uzviy bog'liq. Haqiqiy vatanparvarlik millat, vatan manfaati bilan yashash, uning istiqboli, manfaati yo'lida mehnat qilish, kurashishdir [3;496].

Shaxsda vatanparvarlikning psixologik tuzulmasini tadqiq qilgan V.N.Myasishchevning fikricha, vatanparvarlik komponentlari shaxsning davlatga, xalqqa va o'z-o'ziga nisbatan munosabatida namoyon bo'ladi.



- davlatga munosabat – davlat ramzlarini, davlatning tarixiy, madaniy anʼanalarini, davlat tilini bili shva ularga nisbatan munosabatida koʻrinadi;

- xalqqa munosabat – xalqning mentaliteti, qadriyatlarini, asosiy xususiyatlarini anglash, vatanparvarlik, millatchilik, egotsentrizm, shovinizm tushunchalarining mohiyatini bilish, xalqning tinchlik va harbiy safarbarlik holatiga munosabat, xalq manfaatida vatanparvarlikni ifoda etishga ehtiyoj his qilishda ifodalanadi;

- shaxsning oʻziga vatanparvar sifatida munosabat – oʻzining huquqlarini, burch hamda majburiyatlarini bilishida namoyon boʻladi.

Vatanparvarlik asoslari bolalik davridan qoʻyilib, shaxs yashayotgan shahar, qishloq, koʻcha, mamlakat, davlat ramzlari va boshqalarni bilishdan boshlanadi va keyinchalik yosh ulgʻaygan sari vatan haqidagi tasavvurlar boyib boradi. Insonning tugʻilgan joyiga boʻlgan mehr va yosh ulgʻayganda u joylarni vaqti-vaqti bilan koʻrish uchun qisqa muddatga boʻlsa-da tashrif buyurishga mujbur qiladigan qumsash hislari yukoridagilar asosida yuzaga keladi. Shu sababli yuqorida sanab oʻtilganlar «Kichik vatan» deb ataladi.

A.L.Juravlev va A.V.Yurevich tadqiqotlarida vatanparvarlikning psixologik jihatini tavsiflashga harakat qilingan. Mualliflar vatanparvarlik koʻp komponentli tushuncha va hodisa boʻlib, uning a) sosiy tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat ekanligini taʼkidlaganlar: a) Vatanga muhabbat tuygʻusi; b) shaxsiy manfaatlaridan koʻpchilik, omma manfaatlarini uchun voz kechishga tayyorlik; 3) munosib xulq-atvor; 4) oʻz mamlakati, uning tarixi va xalqiga mansubligini his etish.

Oʻz taqdiri va kelajagi uchun qaygʻuruvchi har qanday jamiyat, har qanday mamlakat yoshlarga munosabat masalasida ularning hayotini maʼnaviy boy, sermazmun qilish, xalqiga, Vataniga sadoqatli, har to monlama yetuk, barkamol inson boʻlib yetishishidan manfaatdordir. Shuning uchun yoshlarning jismoniy, maʼnaviy va intellektual qobiliyatlarini namoyon qila olishlari uchun keng imkoniyatlar yaratib berilmoqda. yatl, ona-Vatanga sadoqatli boʻlib yetishishi jamiyat, davlat taqdiri uchun gʻoyat muhimdir1.

Oʻz xalqiga sadoqat va fidoyilik, ona Vatanni himoya qilish, uni cheksiz sevish har qanday insonning haqiqiy vatanparvarlik fazilati hisoblanadi. Zero, vatanparvarlik Vatanining ozodligi va obodligi, uning sarhadlari daxlsizligi, mustaqilligining himoyasi yoʻlida fidoyilik koʻrsatib yashash, xalqining ornomusi, shon-sharafi, baxt-u saodati uchun kuch-gʻayrati, bilim va tajribasi, butun hayotini baxsh etishdek muqaddas va olijanob faoliyatni anglatadi. Shu

ma'noda, Vatan ravnaqi uchun faol bo'lishga undaydigan ijtimoiy, ma'naviy-axloqiy fazilat, desak ham to'g'ri bo'ladi.

Tarixdan ma'lumki, Vatan ozodligi uchun kurashish masalasi allomalar asarlari hamda ezgu g'oyalarni ifoda etuvchi ta'limotlarning bosh g'oyasi bo'lib kelgan. Binobarin, muqaddas manbalarda ham «Vatanni sevmoq iymondandir», deyilgan. Shunday ekan, Vatan tarixini bilgan, ulug' ajdodlar merosini chuqur o'rgangan har bir inson qalbida milliy g'urur-iftixor tuyg'ulari yanada jo'sh urib, el-yurtga, Vatanga sadoqati ortib boraveradi.

Vatanparvarlik - Vatanga muhabbat, o'z Vatanga sadoqat, uning manfaatlariga xizmat qilishga intilish va uni himoya qilish uchun fidoyilikkacha bo'lgan tayyorlikdir. Shaxs darajasida vatanparvarlik insonning eng muhim barqaror xususiyati bo'lib, uning dunyoqarashi, axloqiy ideallari, xulq-atvor me'yorlarida ifodalanadi. Makrodarajada vatanparvarlik jamoaviy kayfiyatlarda, his-tuyg'ularda, baholarda, o'z xalqiga, uning turmush tarziga, tarixiga, madaniyatiga, davlatiga, asosiy qadriyatlar tizimiga munosabatida namoyon bo'ladigan ijtimoiy ongning muhim qismi hisoblanadi.

Vatanparvarlik insonning xatti-harakatlarida va faoliyatida namoyon bo'ladi. Vatanparvarlik tuyg'ulari o'zining «kichik Vatani»ga bo'lgan muhabbatidan tug'ilib, yetuklik yo'lida bir qator bosqichlarni bosib o'tib, umumdavlat vatanparvarlik o'z-o'zini anglashi, o'z Vatanga bo'lgan ongli muhabbat darajasiga ko'tariladi. Vatanparvarlik har doim aniq, real obyektlarga qaratilgan bo'ladi. Vatanparvarlikning faoliyatli tomoni hal qiluvchi hisoblanadi, aynan u hissiy ibtidoni Vatan va davlat uchun aniq ish va xatti-harakatlarga aylantirishga qodir.

Vatanparvarlik davlatni hayotiyiligining axloqiy asosi bo'lib, jamiyat taraqqiyotining muhim ichki safarbar etuvchi resursi, shaxsning faol fuqarolik pozitsiyasi, o'z Vatanga fidokorona xizmat qilishga tayyorligi sifatida namoyon bo'ladi. Vatanparvarlik ijtimoiy hodisa sifatida har qanday millat va davlatchilikning mavjudligi va rivojlanishining mustahkam asosidir. Vatanparvarlikda xalqning eng yaxshi milliy an'analari Vatanga sadoqat bilan uyg'unlashadi. Vatanparvarlik millatchilik, separatizm va kosmopolitizmga yot bo'lgan baynalmilallik bilan chambarchas bog'liqdir.

Vatanparvarlik Vatanga muhabbat va unga xizmat qilish, davlatning yaxlitligi va suverenitetini, uning milliy xavfsizligini, barqaror taraqqiyotini ta'minlash, burch va mas'uliyatni o'z ichiga olgan fuqarolarning o'zini o'zi anglash va ijtimoiy xulq-atvorining alohida yo'nalishi bo'lib, u ijtimoiy va davlat tamoyillarining individual manfaatlar va intilishlardan ustunligini



nazarda tutadi va shaxs, jamiyatning barcha ijtimoiy guruhлари va qatlamlari hayoti va faoliyatining oliy ma'nosi sifatida namoyon bo'ladi.

Vatanparvarlik - bu fuqarolarning ongli va ixtiyoriy ravishda qabul qilinadigan pozitsiyasi bo'lib, unda ijtimoiy, davlat ustuvorligi cheklov emas, balki individual erkinlikni rag'batlantirish va fuqarolik jamiyatini har tomonlama rivojlantirishning sharti sifatida namoyon bo'ladi. Vatanparvarlikni bunday tushunish tayanch tushuncha bo'lib, vatanparvarlik tarbiyasi fuqarolarning ushbu turdagi ijtimoiy xulq-atvorini shakllantirish va amalga oshirish yo'nalishi sifatida namoyon bo'ladi.

Vatanparvarlik xalqimiz milliy xarakterining eng yorqin xususiyatlaridan biri bo'lib, o'zbek vatanparvarligiga xos xususiyatlar mavjud. Avvalo, bu villiy vatanparvarlik g'oyasining yuksak insonparvarlik yo'nalishi; diniy bag'rikenglik; qonunga itoatkorlik; xalqimizning jamoaviy hayotga bo'lgan barqaror moyilligi va ehtiyoji sifatidagi umumiylik; ona tabiatga bo'lgan alohida muhabbatdir.

#### Adabiyotlar:

1. Маънавият. Асосий тушунчалар изоҳли луғати. – Тошкент: «Маънавият», 2009, 104-105 бетлар.
2. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. А.Мадвалиев таҳрири остида. «Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти», Тошкент, 2006, 444-445 бетлар.
3. Фалсафа. Қомусий луғат. “Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти нашриёти”, Тошкент, 2004, 496 бет.